MILLIY MEROS AKADEMIYASI
NATIONAL HERITAGE ACADEMY

MADANIYATSHUNOSLIK
VA NOMODDIY MADANIY MEROS
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

“Asliyat — asl manba, asl qadriyat, asl meros”

ASLIYAT

ILMIY AXBOROTNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

Ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy jurnal



2026

1-JILD | 2-SON

ASLIYAT
Ilmiy axborotnomasi
https://ijacaes.uz/index.php/Asliyat/index

QASHQADARYO VOHASI HUNARMANDCHILIGI BILAN BOG‘LIQ QO‘SHIQLAR VA ULARNING ANTROPOLOGIK TAHLILI

Davlatova Saodat Tilovberdiyevna,
O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va Xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasi bo‘lim boshlig‘i, tarix fanlari doktori, professor
saodatdavlatova70@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Qashqadaryo vohasining an’anaviy hunarmandchilik faoliyati bilan bog‘liq xalq qo‘shiqlari etnografik va antropologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Ip yigirish, to‘quvchilik, gilamdo‘zlik, kashtachilik, tikuvchilik va zardo‘zlik jarayonlarida ijro etilgan qo‘shiqlarning mazmuni hamda funksional xususiyatlari o‘rganilib, ularning mehnat faoliyati, urf-odatlar, marosimlar va mahalliy aholining ma’naviy dunyoqarashi bilan uzviy bog‘liqligi yoritiladi. Shuningdek, ushbu qo‘shiqlarda aks etgan mehnat madaniyati, hunarmandlarning turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlari, ramziy ma’nolar va an’anaviy qadriyatlarning badiiy ifodasi tadqiq etiladi. Tadqiqot natijalari hunarmandchilik qo‘shiqlari xalqning tarixiy xotirasi, etnomadaniy merosi va milliy o‘zligini saqlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *Qashqadaryo vohasi, hunarmandchilik, xalq qo‘shiqlari, antropologik tahlil, etnografiya, marosimlar, ip yigirish qo‘shiqlari, to‘quvchilik qo‘shiqlari, kashtachilik, gilamdo‘zlik, mehnat folklori, etnomadaniy meros, an’analar, madaniy qadriyatlar, milliy o‘zlik.*

Аннотация. *В данной статье с этнографической и антропологической точек зрения анализируются народные песни, связанные с традиционными ремёслами Кашкадарьинского оазиса. Исследуются содержание и функции песен, исполнявшихся в процессе прядения, ткачества, ковроткачества, вышивания, шитья и золотошвейного ремесла, раскрывается их тесная взаимосвязь с трудовой деятельностью, обычаями, обрядами и духовным мировоззрением местного населения. Особое внимание уделяется отражению в этих песнях культуры труда, образа жизни ремесленников, социальных отношений, символических значений и традиционных ценностей. Результаты исследования показывают, что песни, связанные с ремесленной деятельностью, являются важной составляющей исторической памяти и этнокультурного наследия народа, а также играют значительную роль в сохранении национальной идентичности.*

Ключевые слова: *Кашкадарьинский оазис, ремесленничество, народные песни, антропологический анализ, этнография, обряды, песни прядильщиц, ткацкие песни, вышивка, ковроткачество, трудовой фольклор, этнокультурное наследие, традиции, культурные ценности, национальная идентичность.*

Abstract. *This article analyzes the folk songs associated with traditional handicrafts of the Kashkadarya oasis from ethnographic and anthropological perspectives. It examines the content and functions of songs performed during spinning, weaving, carpet making, embroidery, tailoring, and gold embroidery, highlighting their connection with labor activities, customs, rituals, and the spiritual worldview of local communities. The study also explores the representation of labor culture, artisans’ lifestyles, social relations, symbolic meanings, and traditional values reflected in these*

songs. The findings demonstrate that handicraft songs serve as an important component of historical memory, ethnocultural heritage, and the preservation of national identity.
Keywords: *Kashkadarya oasis, handicrafts, folk songs, anthropological analysis, ethnography, rituals, spinning songs, weaving songs, embroidery, carpet weaving, labor folklore, ethnocultural heritage, traditions, cultural values, national identity.*

Qo‘shiqlar mehnatkash xalqni moddiy va ma’naviy hayotining hamma tomonlari bilan mahkam bog‘langan bo‘lib, ular muayyan tarixiy taraqqiyotda insoniyat tafakkuri darajasiga qarab turmushni o‘ziga xos obrazlarida badiiy aks ettiradi. Qo‘shiqlar o‘zida eng qadimiy tushunchalardan tortib turli davrlarning turlicha qatlamlarini saqlagan hamda boy tasviriy vositalarda ifodalangan, serqirra mavzu, janrlarning turli-tumanligi bilan xarakterlanuvchi qadimiy ijrochilik usullariga ham ega.

Insoniyat paydo bo‘libdiki, o‘z his-tuyg‘ularni ifodalash vositasi sifatida qalb ohanglarini qo‘shiqlarda ifodalagan. Qadimdan qo‘shiq deb atayotgan janr adabiyotlarda ko‘rsatilishicha, “shlok”, “takshut”, “ir” (yir), “kug” kabi atamalar bilan atalgan. Masalan, Mahmud Koshg‘ariy bunday asarlarni “qoshug‘” – qo‘shiq, qasida, she’r tarzida beradi.

Xalq qo‘shiqlari esa to‘liq ravishda lirik ijod sifatida belgilangan. Taniqli olima, xalq qo‘shiqlarining yirik tadqiqotchisi, butun umrini xalq qo‘shiqlarini yozib olish, o‘rganish, nashr qilishga bag‘ishlagan fidoyi inson Muzayyana Alaviya mazkur asarlarga: “oddiy hayot hodisalari tug‘dirgan hissiyotni ifodalagan, kuyga solishga qulay, qisqa, esda qoladigan qofiya, vaznga ega bo‘lgan she’r qo‘shiq bo‘la oladi”, – deb ta’rif beradi.

Haqiqatan ham, qo‘shiqning paydo bo‘lishiga bosh sabab inson kayfiyatidagi chuqur iztirob yoki to‘satdan paydo bo‘lgan ko‘tarinki ruhdir. Inson noxush damlarda ko‘proq sukut saqlaydi, hayolda vaziyat yechimini topishga urinadi. Bunday daqiqalarda mungli kuy tasalli beradi, ko‘ngilni bir oz bo‘lsa-da yozadi. Xursandchilik onlarida esa sho‘x qo‘shiq, raqs hamroh bo‘ladi. Ayni ana shunday manfiy va musbat holatlar shaxs qalbida lirik kechinmalarning paydo bo‘lishiga zamin hozirlaydi: oqibatda qo‘shiqning yaratilishiga sabab bo‘ladi. Xalqimizda “Kuygan – qo‘shiqchi, suygan – baxshi” hikmati bejiz aytilmaydi. Qo‘shiqlar dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik qo‘shiqlariga bo‘linadi

Hozirgi kunda dunyo miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari etnik xususiyatlarni saqlab qolish omillari va milliy marosimlarni ilmiy asoslashga sabab bo‘lmoqda. Bugun zamonaviy etnologiyada tadqiqot mavzusi yanada chuqurlashtirilgan holda eng yirik etnoslardan tortib kam sonli xalqlarni ham izchil o‘rganishga, ularning turmush tarzi bilan bog‘liq urf-odat va marosimlarni tadqiq qilishga e’tibor qaratilmoqda.

Hunarmandchilik ishlarini bajarish jarayonida kuylanadigan qo‘shiqlar hunarmandchilik kasb-kori bilan bog‘liq qo‘shiqlari hisoblanadi. O‘zbek xalq hunarmandchilik qo‘shiqlari orasida charx yigirish, o‘rmak o‘rish, kashta, to‘n tikish, gilam, bo‘z to‘qish bilan bog‘liq qo‘shiqlar asosiy o‘rin tutadi. Masalan, hunarmandchilik qo‘shiqlaridan: a) 44 misra o‘tov tikishga; b) 28 misra gilam to‘qishga; v) 40 misra esa so‘zana, zardevol, ro‘molcha, bug‘joma, yostiq, ko‘rpa, qalpoq, belbog‘ tikishga bag‘ishlanganlarni keltirib o‘tish mumkin[1].

To‘qimachilik hunarmandchiligining eng yirik tarkibiy qismlaridan biri tikuvchilik hunari qo‘shiqlari xalqimizning uzoq asrlar davomida shakllangan tikish-bichishga aloqador an’analarini ifoda etadi. Ular askar hollarda, tikiladigan kiyimlarning turlari va ularga daxldor e’tiqodlarga qarab ichki xilma xillik hosil qilgan. Shu sababli bir kiyimga atalgan qo‘shiq namunasini boshqa bir kiyim tikish jarayonida aytib bo‘lmaydi. Shu zaylda bir-biridan farq qiluvchi kashtachilik, do‘ppido‘zlik, to‘ndo‘zlik, zardo‘zlik va boshqa turkumga mansub qo‘shiqlar paydo bo‘la boshlagan.

To‘quvchilik hunarmandchiligida ip yigirish bilan bog‘liq urchuq qo‘shiqlari hunarmandchilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar sirasida katta o‘rin egallaydi. Chunki u yoki bu matoni to‘qish uchun zarur bo‘lgan ipni mustahkam eshishda qo‘llaniladigan maxsus dastgohlar yo‘q paytlarda kishilar ipni urchuq vositasida yigirganlar. Urchuq qo‘lda ip yigirish uchun ishlatiladigan, ikki tomoni uchli, o‘rtasi yo‘g‘onroq tayoqcha, yigirish quroli hisoblangan [2, 281].

Qo‘l mehnati bilan bajariladigan bu mehnat turi ham uzoq vaqt talab etadigan zerikarli jarayon bo‘lib, ip yigiruvchi ayollar ish paytida urchuqqa murojaat qilishib, ishning ishning unumli va samarali bo‘lishini tilaganlar:

Tez-tez aylan urchug‘im,
Tezlab bo‘layin kechka.
Burayin qo‘lim bilan,
Gurillab aylan, urchug‘im [3, 308].

Urchuq yigirish ham ayollardan mahorat, epchillik talab etadi. Shuning uchun o‘rmakchi xotinlarning o‘z ishini puxta bajarish haqidagi istaklari aks etganligi muhim ahamiyatga ega.

Dostonlarda aks etgan hunarmandchilikka oid qo‘shiqlar ichida charx qo‘shiqlari katta o‘rin egallaydi. Mehnat e’tibori bilan charx urchuqdan keyin yuzaga kelgan ip yigiruvchi mukammallashgan asbob bo‘lib, uning ish unumi ancha yuqori. Charx ip yigiradigan dukli dastali asbob[4, 357]. Bundan ko‘rinib turibdiki, charx maxsus dastakni burash orqali aylantiriladi, shu bois u kishini tez charchatadi.

Charx yigirib, charx yigirib,
Shul qo‘lginam toladur.
Agar shuni yigirmasam,
Bolalar och qoladur [5, 319].

Charx urchuqqa nisbatan ancha qulaylikka ega bo‘lishiga qarmay, ish unumi jihatidan hozirgi dastgohlar darajasida emas. Ip yigiruvchilar bir hafta mobaynida qilgan ishlari evaziga oilani boqishga yetadigan ip tayyorlay olmasliklaridan shikoyat qiladilar.

Marosimlar millatning o‘ziga xosligi va tarixiy tajribasini saqlash va kelajakka yetkazish vositasi sifatida milliy hayotning ulkan belgili (semiotik) hodisasidir. Ayni paytda, ma’naviy qadriyatga aylangan urf-odat va rasm-rusumlar zamon talablari asosida qayta baholanib boradi. Ushbu etnosemiotik jarayon ham an’anaviylikning ustuvorligidan kelib chiqadi.

Marosim qo‘shiqlari musiqa folklorining murakkab va muhim masalalaridan hisoblanib, urf-odatlar qo‘shiqlar bilan bir butunlikda olinadi. Zero, marosimning tarixiy takomilini ko‘rish uchun qo‘shiqlarning badiiy obrazi muhim o‘rin tutadi. Marosimlarda

xatti-harakat va so‘z vositalari qatorida musiqa muhim o‘rin tutadi. Biz birorta marosimni qo‘shiq yoki aytim-yo‘qlovlarsiz tasavvur eta olmaymiz.

Qashqadaryo vohasining Qarshi va Shahrisabz tumanlarida metallga ishlov beruvchilar katta boboga atab ma’lum davr oralig‘ida *sannongarlik /sannonpazlik* marosimini o‘tkazib turishgan. *Sannonpozlik* – bu arvohi pir marosimining o‘zi bo‘lib, unda Qashqadaryoning barcha metallga ishlov beruvchilari, ya’ni temirchilar, misgarlar, zargarlar ishtirok etishgan. Bu marosim Rossiya imperiyasi bosqiniga qadar Qarshi va Shahrisabzda 2–3 yilda bir marta o‘tkazilinib, unda asosan hunarmandlarning jamoaviy ishlari borasidagi masalalar ko‘rilgan. Sannonpazlik marosimida Qur’on va risoladan parchalar o‘qilgan, qo‘y va echki so‘yilib, qurbonlik qilingan. Bu marosim uchun salqin va so‘lim joylar tanlanib, ba’zan temirchilarning qo‘rg‘oni yoki masjid hovlilarida ham o‘tkazilgan. Marosim tayin qilingan kunda taklif qilinganlardan kimgadir temir-tersak, ko‘mir va boshqa mahsulotlar kerak bo‘lsa, marosim kuni tortiq va shirinliklar bilan birga yetkazilgan. Bundan tashqari, oqsoqolga barcha harajatlar uchun ma’lum miqdorda bir qism pul ham berilgan. Kelgan mehmonlar yuqorida o‘tirgan imom, bobo, oqsoqol va katta ustalar bilan salomlashishgan. Hamma yig‘ilgandan so‘ng Qur’ondan oyatlar o‘qilib, hunar pirlariga sajda qilingan. Keyin ustaxonalarni ta’mirlash boshlanib, bu jarayon bir necha kun davom etgan.

Dehqonchilik kabi hunarmandchilik sohasida ham *kayvoni* atamasi uchraydi. Kayvoni Qashqadaryo vohasining tog‘li tojiklari orasida katta oilalardan tayinlangan ayol bo‘lib, barcha ayollarga ishni ta’minlab beruvchi hisoblangan. Vohaning turkiy tilli aholisi orasida kayvoni atamasi faqat ayollarga nisbatan emas, balki hunarmandchilik masalalari bilan shug‘ullanuvchi qishloqning katta yoshdagi erkaklariga nisbatan ham qo‘llangan. U Farg‘ona vodiysida – *xodim,* Buxorada – *kayvoni*, Toshkentda *dasturxonchi* deb atalib, barcha oilaviy marosimlarni o‘tkazish, mehmonlarga yeguliklar tortish va sovg‘a berishda o‘z maslahatini bergan.

Surxon vohasida olib borilgan dala etnografik tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, xalq dostonlarida aks etgan o‘zbek xalq qo‘shiqlari orasida hunarmandchilik kasbu-koriga oid qo‘shiqlar anchagina salmoqli o‘rin egallaydi. Bunday qo‘shiqlarda hunarmand yoki kosibning uzoq tarixiy sharoitlardagi moddiy va ma’naviy hayoti, ichki ruhiy kayfiyati, mehnat mashaqqatlari bilan qo‘shilib tasvirlanadi:

Bo‘z to‘qiymiz qirg‘og‘ini o‘xshatib,
Moki otaman dastginamni qaqshatib,
Bozordagi shoyilardan yaxshi etib
Nafsdan o‘xshagan bo‘zim yaxshidir [6].

Ayollar tilidan aytiladigan bunday qo‘shiqlar charx yigirishda (“Charxim tonib tashlaydi”), olacha, gilam to‘qishda, so‘zana, palak, do‘ppi tikish va shunga o‘xshagan ish jarayonlarida yaratilgan hamda tildan-tilga o‘tib kuylanib kelmoqda. Demak, bo‘zchi aytgan qo‘shiqda jafoli, unumsiz mehnat bo‘zchilik hunarining g‘oyat og‘irligi, buning ustiga to‘kilgan bo‘zi sotilmay, bozori kasod bo‘lib, oilasidan muhtojlik arimaganligi singari motivlar ravshan ko‘rinib turibdi. Xalqda “bo‘zchi belboqqa yolchimas” degan maqol behuda bo‘lmagan. Haqiqatda bo‘zchi bor yo‘g‘ini bozorga olib chiqqan, bir parcha nonga

almashtirgan. Ana shu hayotiy detallar, kosibning ruhini qo‘rquv, g‘amginlik, shikoyat motivlar orqali beriladi:

Do‘kondan uyga kirsam tanam qaqshaydi,
Sovuqlarda o‘lmay qolsam yaxshiyda
Qarisi tilladan ketsa yaxshiydi,
Shunday mening bo‘zim arzon ketarmi [7].

Mehnat jarayonini aks ettiradigan an’anaviy qo‘shiqlarning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, bajariladigan mehnat ritmi qo‘shiq ohangi bilan ichki bog‘liqlikka egaligin ko‘rsatadi. Kosib-hunarmandning kelini yoki qizini charxda ip yigira turib, qo‘l harakati ritmiga muvofiq ohangda mos kuylaganda, uning yoshligi, ichki zavqi, shu topda ishdan ko‘ra o‘yinga mayli ko‘proq ekani sezilib turadi:

Elak ichida kepak,
Mening eshganim ipak,
Mening ipimday qilib
Esholmaydi o‘rgimchak.

Bu kabi qo‘shiqlarda aholining halol mehnat qilib yashashi, tiriklik uchun kurashi, kundalik turmush tarzi, xo‘jalik faoliyati va mehnatga muhabbati uning azaliy odati ekanligi chuqur hayotiy aytimlarida ko‘rish mumkin.

Bo‘zchi dastgohining har bir zaruriy qismi haqida fikr yuritilishi va ularning bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikning qo‘shiqqa solinishi tasodifiy emas. Bo‘zchi o‘z qo‘shiqlarida mehnat sharoitining og‘irligi, zax, qorong‘i, do‘konda ishlash jarayoni quyidagicha tasvirlanadi.

Gulladan ilgari dastgoh,
Poshpurtlarni urdim pastga,
Siring aytma yoru do‘stga,
O‘tgin, qora mokim endi[7].

Hunarmandchilik qo‘shiqlarida mehnat ahlining moddiy qiyinchiliklari, turmush kechirishning og‘irligi va ijtimoiy hayotdagi tengsizlik sabablarini ochiq ravshan tushunib olish mumkin.

Tarixiy manbalardan ma’lumki, Qashqadaryo vohasida yashovchi turkman xalqining yabani urug‘i, hamda Qamashi va Jeynov qishloqlaridagi arablar bilan birga yashovchi aholi o‘rtasida gilamdo‘zlik vohaning boshqa hududlariga qaraganda juda rivojlangan. Yabani urug‘i ersari qavmiga mansub bo‘lib, XVIII asrning o‘rtalarida Qashqadaryo vohasiga Turkmanistonning Burdaliq qishlog‘i atroflaridan ko‘chib kelishganligi to‘g‘risida ma’lumotlar uchrayd[8, 230]. Lekin bu fikr bilan vohada gilamdo‘zlikning rivojlanishida turkman urug‘lari muhim o‘rin tutgan ekan degan xulosaga kelmaslik kerak. Vohada gilamdo‘zlik qadimdan mavjud bo‘lib, bu kasb qo‘shni urug‘ va qavmlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar natijasida takomillashib, rivojlanib kelgan.

Dostonda gilamdo‘zlik va tikuvchilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar Zebo va uning onasi obrazi talqini orqali beriladi. Tikuvchilik o‘zbek xotin-qizlarining barchasi bilishi shart bo‘lgan hunar hisoblansa-da, bu sohaning ham o‘z ustalari, elda nom qozongan chevarlari

bo‘lgan. Qo‘shiqda aytilganidek: Jomovni jonli tikadi, tugmani egri tikadi, to‘p tikish, ko‘rpa tikish, uni ko‘r ham tikadi [9].

Hozirgi kunda vohaning G‘uzor, Dehqonobod, Qamashi, Chiroqchi tumanlari qishloqlarida oilada qiz bola kashta tikish hunarini bilishi, gulli yostiq, bolish, qo‘lro‘mollar, sochiqlar, zardevorlar, so‘zana va boshqalar tikishi shart hisoblanadi[10]. Chiroqchi, Qamashi va G‘uzor tumanlarida istiqomat qiluvchi aholi o‘rtasida chimildiq va sochiqlar, parda va joynamozlar, zarchapon va do‘ppilar tikilgan bezaklar, gullar, hayratomuz shakllar nozikligi va ramziy ma’nolar anglatishi bilan kishini o‘ziga maftun etadi degan g‘oya ustunlik qiladi[11].

Sanamani sardor tikar,
Sanab-sanab ko‘zin tikan.
Sanama tamom bo‘lguncha,
Gap eshitmay bo‘ladi kar [5].

Markaziy Osiyo xalqlarida, xususan, o‘zbeklarda kashta tikishning qadimiyligi, tikilayotgan shakllarning betakrorligi bilan kashtalar bir necha turlarga ajratiladi va ular barqaror an’anaviylikka ega.

Dostonda tikuvchilik-kashtado‘zlik bilan bog‘liq qo‘shiqlar ko‘p uchraydi. Zeboning Yozi uchun sirg‘a, javdar munchoqli qo‘lro‘molcha, sachoqli belbog‘, har guli naqshli qalpoq, ikkalasi uchun chevarligini bildirib, yostiq parchasini mullatib ko‘rpa, uy bezashga zardevol, ipak gulli bo‘g‘joma, paxtagulli, tovusgulli uy jihozlari tikadi.

Belbog‘ tikay sochoqli,
Sachoqlari munchoqli,
Yor beliga bog‘lansin,
Yozim tog‘day quchoqli...[9].

Bu yerda ko‘rinib turibdiki, kuyov uchun tayyorlangan belbog‘ atrofiga sachoqlar tikish va munchoqlar tikib qo‘yish odati tasvirlangan. Munchoqlar taqilgan taqinchoq ofat va kulfatlarning yo‘lini to‘so‘vchi go‘zallik timsoli hisoblangan. Ma’lumki, qadimgi davrlardan O‘rta Osiyo taqinchoqlarida ziynat, nafosat, bezak vazifalaridan tashqari marosimiy irimlar bilan bog‘liq xususiyatlar ham mujassamlashgan [10].

Hunarmandchiligiga oid urf-odat va marosimlar ajdodlar kulti bilan bog‘liq bo‘lib, ustaning shogirdiga fotiha berishi va ajdodlar ruhiga minnatdorchilik bildirishi ko‘rinishida yaxshi saqlangan. Shuningdek, bu urf-odat va marosimlar hunarmandchilikning shakllanishi, unga turli davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta’siri, ishlab chiqarish jarayonlarini yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Qolaversa, ular diniy-falsafiy qarashlar bilan ham uzviy bog‘liq bo‘lib, o‘simlik, hayvonot olami, koinot, inson va tabiatning abadiyligi ifodalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ёзи билан Зебо”,достони, қўлёзма, айтувчи Қодир ва Қаҳҳор бахши Раҳимовлар. Ёзиб олувчи А. Эргашев. Қарши ДУ архиви инв. № 16. 1-саҳифа.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-том. М., 1981. – Б. 281.
3. Бойчечак. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Тошкент, 1984. – Б. 308.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки томлик. 2-том. М., 1981. – Б. 357.

5. Бойчечак. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Тошкент, 1984. – Б. 310.

6. Дала ёзувлари. Бойсун тумани. Мунчоқ қишлоғи. 2019 йил. (Шоберди бахшидан ёзиб олинди 22.03.2019)

7. Дала ёзувлари. Бойсун тумани. Мунчоқ қишлоғи. 2019 йил.

8. Мошкова В.Г. Ковры народов Средней Азии конца XIX- начала XX вв. - Т.: «Фан», 1970. - С. 230.

9. «Ёзи билан Зебо». Қаҳҳор бахши Қодир ўғли, ёзиб олувчи: А.Эргашев. Қўлёзма ёзиб олувчининг шахсий архивида сақланади.

10. Дала ёзувлари. Масалан, Хўжамаҳмуд (Деҳқонобод), Апарди, Зангтепа, Зангибобо, Кераит, Савбоғ, Сарой, Чўмичли (Ғузор), Манғит, Мирзадала, Карвон, Олмазор, Пахтаобод, Қизилгул (Қамаши), Лолобулоқ, Сарсон, Умақай, Шўрқудуқ, Чувуллоқ (Чироқчи) каби қишлоқлар шулар жумласидандир. 2008 йил август.

11. Дала ёзувлари Зангибобо, Кераит, Савбоғ, Сарой, Чўмичли (Ғузор), Карвон, Олмазор, Пахтаобод, Қизилгул (Қамаши), Умақай, Шўрқудуқ, Чувуллоқ (Чироқчи) каби қишлоқлар шулар жумласидандир. 2014 йил

12. Faxriddinova D.A. O‘zbekiston zargarligi // Ma’danga bitilgan qo‘shiq. - T.: 1986. – B. 141.